

Chet til o'rganuvchilarning tinglab tushunish va so'zlashuv qobiliyatlarini rivojlantirishning turli uslublarini tadbiq qilish

*Rustamova Shoxista Sharifovna,
rustamova-87@internet.ru
Katta o'qituvchisi
Samarqand davlat chet tillar instituti*

Annotatsiya. Til o'rganish kishilik jamiyatida g'oyat muhim sohalardan hisoblanadi, xorijiy tilini o'rgatish va o'rganish ko'p jihatlari bilan ona tilidan keskin farq qiladi. Bu esa tilshunoslar oldida chet tili o'qitishning yangi texnologiyalarini qo'llashning noan'anaviy, ya'ni tilni kommunikativlik asosida o'qitishning hozirgi holatini izchil o'rganish va mavjud muammalarni bartaraf etish vazifasi yotadi. Muloqot jarayonida tinglab tushunish va so'zlashuv ko'nikmalarini o'rgatish chet tilini o'qitishda ta'limning hal qiluvchi jihati hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalar nafaqat til o'rganuvchilarga samarali muloqot qilishda yordam beradi, balki ularning umumiy ijtimoiy va hissiy rivojlanishini yaxshilaydi.

Kalit so'zlar: ko'nikma, qobiliyat, til ko'nikmalari, kompetensiya, nutq kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, kompetensiya turlari.

Внедрение различных методов развития навыков аудирования и разговорной речи у изучающих иностранный язык

*Рустамова Шохиста Шарифовна,
rustamova-87@internet.ru
Старший преподаватель
Самаркандский государственный институт иностранных языков*

Аннотация. Изучение языка является одной из наиболее важных областей толерантности в человеческом обществе. Преподавание и изучение иностранного языка в определенных аспектах резко отличается от родного языка и иностранного языка за границей. В этом заключается задача лингвистов последовательно изучать нынешнее нетрадиционное состояние, то есть обучение языку на основе коммуникативности и устранять существующие проблемы применения новых технологий преподавания иностранного языка. В процессе общения умение слушать, чтобы понимать, и развитие разговорных навыков является важнейшим аспектом обучения иностранному языку. Эти навыки не только помогают изучающим язык эффективно общаться, но и улучшают их общее социальное и эмоциональное развитие.

Ключевые слова: навыки, склонности, языковые навыки, компетентность, речевая компетентность, коммуникативная компетентность, компетентностный подход, типы компетенций.

Implementing various methods for developing listening and speaking skills of foreign language learners

*Rustamova Shokhista Sharifovna,
rustamova-87@internet.ru
Senior teacher
Samarkand state institute of foreign languages,*

Annotation. *One of the most crucial aspects of tolerance in human civilization is language acquisition. In several ways, teaching and learning a foreign language differs greatly from teaching one's home tongue. This is the responsibility of linguists to continuously research the current non-traditional state, which is teaching a language based on communicativeness and resolving issues with the use of modern technology in foreign language instruction. Listening comprehension and developing speaking skills are considered important components of teaching a foreign language. These abilities enhance language learners' general social and emotional growth in addition to facilitating efficient communication.*

Keywords: *abilities, skills, linguistic proficiency, proficiency, speech proficiency, communicative proficiency, proficiency methodology, and proficiency categories.*

Hozirgi chet til o'qituvchilari oldidagi muhim vazifalardan biri til o'rganuvchilarni chet tilida erkin so'zlashishga, o'quvchilarni kattalar va tengdoshlari bilan erkin muloqat yuritishga, o'z holati, his-tuyg'ulari va maqsadlarini nutqi orqali ravon ifodalashga; o'zini qiziqtirgan mavzular bo'yicha tortinmay savollar berishga o'rgatishda davom etish, suhbatdoshining nutqini tinglash va aytmoqchi bo'layotgan fikrini anglash, his-tuyg'ularini hurmat qilish madaniyatini shakllantirish hisoblanadi (Qodirova, 2019).

So'zlashuvchining o'z fikrini ifodalash vositasi bo'lmish tinglab tushunish va so'zlashuv qobiliyatlari o'quvchining akademik muvaffaqiyati va shaxsiy o'sishi uchun muhimdir. Ular samarali muloqot, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish uchun asos yaratadi. Bundan tashqari, o'quvchilarda pragmatik qobiliyatni shakllantirishda nutq xatti-harakatlarning o'zlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so'rash, taklif qilish, uzr so'rash, tuzatish kiritish va boshqa shunga o'xshash standart va nostandart nutqiy holatlar shular jumlasidandir. "Ana shunday nutq xatti harakatlari yordamida, tabiiy muloqotning juda murakkab hajmidan chet til jamiyatidagi xulqning bir qator normalari va til strukturalarini ifadolovchi til tuzilmalariga ega bo'lamiz" (Safarov, 2008). Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali til o'rganuvchilar o'quv jarayonining faol ishtirokchilariga aylanadilar va o'z fikrlari, g'oyalari va his-tuyg'ularini ifoda etish uchun yaxshi jihozlanadilar.

Chet til o'rgatuvchisi sifatida o'qituvchi tinglab tushunish va so'zlashuv qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan qo'llab-quvvatlovchi va qiziqarli o'quv muhitini yaratish uchun noyob imkoniyatga egadirlar. Samarali strategiya va texnikani amalga oshirish orqali ta'lim beruvchilar o'quvchilarga ishonchli va samarali kommunikator bo'lishga yordam bera oladilar.

Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda til o'rganuvchining o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, suhbatdoshlar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi (Normatova, 2021).

Chet til o'qituvchilari oldida til o'qitishda e'tiborga molik quyidagi bir nechta omillar juda muhim sanaladi:

1. Tinglab tushunish va so'zlashuv qobiliyatining ta'rifi. Tinglab tushunish qobiliyatlari og'zaki tilni qabul qilish, talqin qilish va tushunish qobiliyatini o'z ichiga oladi. U faol tinglash, bu diqqatni jamlashni va yetkazilayotgan xabarni tushunishni talab qiladi. Boshqa tomondan, nutq qobiliyatlari fikrlar, g'oyalar va his-tuyg'ularni izchil va ravon ifoda etish qobiliyatini oshirishda namoyon bo'ladi.

2. Samarali tinglab tushunish va so'zlashuvning asosiy komponentlari. Samarali tinglab tushunish va so'zlashuv qobiliyatlari bir nechta asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Bularga quyidagilar kiradi:

- a. diqqat: to'liq ishtirok etish va suhbat yoki faoliyat bilan shug'ullanish.
- b. tushunish: yetkazilayotgan xabarni tushunish va uni to'g'ri talqin qilish.
- d. aniqlik: fikr va g'oyalarni aniq va izchil ifoda etish.
- e. ravonlik: bemalol va ikkilanmasdan gapirish.

f. og‘zaki bo‘lmagan muloqot: muloqotni kuchaytirish uchun tilining noverbal vositalari, ya’ni yuz ifodalari va imo-ishoralarni tushunish va ulardan foydalanish.

3. Chet til o‘rganuvchilari duch keladigan umumiy muammolar. Til o‘rganuvchilarining tinglasb tushunish va so‘zlashuv qobiliyatlarini rivojlantirishda turli qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bu qiyinchiliklar diqqat va diqqat bilan bog‘liq qiyinchiliklarni, so‘z boyligining cheklanganligini, uyatchanlik yoki xavotirni va ishonchsizlikni o‘z ichiga olishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklarni tushunib, ta‘lim beruvchi o‘quvchilarni samarali hal qilish uchun o‘qitish strategiyalarini moslashtirishlari kerak.

Tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirish uchun qulay o‘quv muhiti zarur. Bunday muhitni yaratish uchun ba’zi strategiyalar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:


1. Chalg‘itadigan narsalarni minimallashtirish: o‘quvchilarning diqqatini tinglasb tushunishga qaratishlari uchun sinfdagi shovqin va vizual chalg‘itishni kamaytirish.

2. Faol tinglab tushunishni rag‘batlantirish: talabalarga tushunishni ta’minlash uchun ko‘z bilan aloqa qilish, savollar berish va shakl o‘zgartirishlar kabi faol tinglash usullarini o‘rgatish.

3. O‘quvchilarga mavzu bilan yaqinlik hissini uyg‘otish. Bu faoliyat o‘quvchilar muloqotining sifatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarda mavzu bilan tanishtirishni ta’minlashning bir nechta yo‘llari mavjud. Shulardan biri, o‘quvchilarga tanish bo‘lgan mavzuni muhokama uchun berish, bundan maqsad rejalashtirish vaqtlariga kelganda ular o‘zlarining va bir birlarining muloqot sifatlariga e’tibor beradi (Miltrud, 2003).

Til o‘rgatishning an’anaviy yondashuvlari til ravonligining asosi sifatida grammatik kompetensiyani birinchi o‘ringa qo‘ygan. Ushbu yondashuvga asoslangan metodologiyalar orasida audiolingvizm (Shimoliy Amerikada) (shuningdek, og‘iz-quloq usuli sifatida ham tanilgan) va Buyuk Britaniyada tizimli-vaziyatli yondashuv (shuningdek, tilni vaziyatga moslab o‘rgatish deb nomlanadi). Bu davr o‘quv dasturlari har bir darajaga mos ravishda tasniflangan so‘zlar va grammatik qoidalar ro‘yxatidan iborat edi (Richards, 2006).

Oddiy vaziyatli yondashuv darsida ko‘pincha P-P-P ketma – ketligi deb nomlanuvchi uch fazali ketma-ketlik qo‘llaniladi: Taqdimot, Amaliyot, Ishlab chiqarish.



1-rasm. P-P-P ketma-ketligi uslubining dars jarayonida qo'llanilishi

Interfaol mashg'ulotlar esa o'quvchilarga mashq qilish va tinglab tushunish qobiliyatini oshirish imkoniyatini beradi. Quyidagi tadbirlarni kiritish dars jarayonining faollashuviga olib keladi:

1. Juftlik va guruh muhokamalari: o'quvchilarni tengdoshlari bilan suhbatlashishga, bir-birlarini faol tinglashga va javob berishga undash.

2. Rol o'ynash mashqlari: haqiqiy hayotiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish hamda tinglab tushunish va so'zlashuv qobiliyatlarini oshirish uchun rol o'ynashdan foydalanish.

So'zlashuvni rivojlantirishga ko'maklashish nutq qobiliyatlarini rivojlantirish uchun juda muhimdir. Og'zaki Nutqni rivojlantirishni rag'batlantirish uchun quyidagi faoliyatlar taklif qilinadi:

1. Mazmunli suhbatlar bilan shug'ullanish: o'quvchilarga tanqidiy fikrlash va g'oyalarni ifoda etishga yordam beradigan suhbatlar bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yaratish.

2. Hikoyalar va taqdimotlarni dars jarayonida faollashtirish: o'quvchilarga boshqalar oldida gapirishni mashq qilishga imkon beradigan hikoya yoki taqdimot vazifalarini tayinlash (Jalolov, 2012).

Bundan tashqari, o'quvchilarning so'zlashish jarayonini rivojlantirishda notiqlik uchun imkoniyatlar yaratish muhim omillilardan biri sanaladi. O'quvchilarga notiqlik bilan shug'ullanish uchun quyidagi imkoniyatlarni taqdim etish orqali chet tilda ravon so'zlashishlarini ta'minlash mumkin:

1. Sinf taqdimotlari: o'quvchilar nutq qobiliyatlarini namoyish etadigan muntazam taqdimotlarni tayinlash.

2. Debatlar va munozaralar: talabalardan o'z fikrlarini bildirishni va ishonarli nutq so'zlashni talab qiladigan munozaralarni tashkil qilish.

O'qituvchining vazifasi har bir o'quvchiga tilni amaliy o'zlashtirish uchun sharoit yaratish, ularga o'z faolligi, ijodkorligini namoyish etishiga imkon beradigan shunday o'qitish usullarini tanlash, chet tillarini o'qitish jarayonida o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirishdir. Ingliz tili darslarida o'quvchilar o'rtasida lingvistik kompetensiyani shakllantirish mashqlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. So'z birikmalarini yasash mahoratini o'zlashtirish, ularning tarkibiy qismlarining ma'nolari va ularga mos keladigan so'z yasash modelini bilish asosida notanish so'zlarni mustaqil ravishda anglash qobiliyatini o'zlashtirishni anglatadi (Jalolov, 2015).

Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo'naltirilgan va ishlab chiqilgan mashqlar va topshiriqlar tizimi bevosita nutqiy faoliyatga aloqadordir. Ular o'z tarkibiga o'xshash va farqli (identical and differentiating), o'rniga boshqa so'z yoki so'z birikmalarini qo'yish mumkin bo'lgan mashqlar (substitutional exercises), savol javobga asoslangan (question-answer), vaziyatga bog'liq bo'lgan (situational) va shu bilan birgalikda konstruktiv mashqlar (constructive exercises) kabi turlarga bo'linadi. "Shu munosabat bilan talabalarining nutq qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirish muloqot uchun zarur va shak-shubhasiz muhimdir. Bundan tashqari, o'qituvchilarimiz filologiya yo'nalishi talabalarining nutq mahoratini o'rgatish usullaridan xabardor bo'lislari lozim" (Saliyeva, 2019).

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish g'oyasi ijtimoiy taraqqiyot nazariyasi va amaliyotida, post-industrial, axborot jamiyatiga o'tish davrida yuzaga kelgan ta'limni rivojlantirishdagi ziddiyatlarni hal qilishning eng samarali usuli sifatida shakllandi (Rustamova, 2023).

Shunday qilib, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirishda til haqidagi bilimlarning ahamiyati yuksakdir. Bu borada dars jarayonida o'qituvchi tillar orasidagi farqlar, o'xshashlik va interferensiyani tushuntirib borishi ham katta ahamiyatga ega. Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari va elektron resurslardan samarali foydalanib dars o'tilishi o'quvchilarga darsni oson o'zlashtirish, tilning leksik hamda grammatik hodisalarini qiyosiy o'rganib, turli mashqlarni bajarishida katta imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov, J.J. (2012). *Chet tili o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Jalolov, J.J., Maxkamova, G. T., & Ashurov, Sh. S. (2015). *English language teaching methodology (Theory and practice)*. Toshkent.
3. Normatova, N.N. (2021). *Ingliz tilini o'qitishda iqtisod yo'nalishi talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish: Ped. fanlari bo'yicha falsafa dokt. diss. avtoreferati*. Samarkand.
4. Oxford English Dictionary. (2005). *OED*. London: Oxford University Press.
5. Qodirova, F.R., et al. (2019). *Nutq rivojlantirish metodikasi*. Toshkent.
6. Richards, J.C. (2006). *Communicative language teaching today*. Cambridge University Press.
7. Rustamova, Sh.Sh. (2023). Kommunikativ kompetensiyaning o'rta ta'limda pedagogik kategoriya sifatida qo'llanilishi. *O'zMU xabarlari*, 1/4, 142-144.
8. Safarov, Sh. (2008). *Pragmalingvistika*. Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediya davlat ilmiy nashriyoti.
9. Saliyeva, Z.I. (2019). Gapirish ko'nikmalarini kommunikativ yondashuv asosida o'rganishning ahamiyati. *Zamonaviy ta'lim*, 11(84), 43-48.
10. Мильруд, Р.П., & Гончаров, А.А. (2003). Теоретические и практические проблемы обучения пониманию коммуникативного смысла иноязычного текста. *Иностр. Языки в школе*, 1, 12-19.